



**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYATNING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2024 - YIL YANVAR - APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2024- yil yanvar- aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 660,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 113,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2024 yil yanvar-aprel

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning 1,8 m. ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 12,4 % ga, o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2023- yil

B

0,7 %

2024- yil

B

0,8 %

Yanvar-aprel

2024-yil yanvar-aprel

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	5 091,3	4 076,6	-1 014,7
Sharof Rashidov tumani	3209,8	10 523,6	7 313,8
Zomin tumani	908,1	1 944,9	1 036,8
Jizzax shahri	5 140,6	28 424,0	23 283,4
Zafarobod tumani	2 265,1	2 047,8	-217,3

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahri (56,0 %), Sharof Rashidov tumani (20,7 %) va G‘allaorol tumani (8,1 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

45,4 %

2023- yil

186,0 %

2024- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2024- yilning yanvar-aprel oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 471,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,2 % ini tashkil etdi.


2023-yil yanvar-aprel

97,2 %

2024-yil yanvar-aprel

97,2 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 56,4 % (48,1 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 11,0 % (13,8 %) va quyi texnologiyalisi - 29,7 % (35,2 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 54,2 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (11,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,4 % (96,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (121,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,4 % (111,6 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	14 227,7	11 427,0	- 2 800,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	6 146,7	4 494,3	-1 652,4
Paxta chigiti, t.	21 263,0	17 296,0	- 3 967,
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	1 810,5	3 993,1	2182,6
Paxta linti, t.	1 278,9	1 075,0	-203,9
Trikotaj polotnolar, t.	1023,0	464,5	-558,5

2024- yilning yanvar-aprel oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,2 % kamaygan), 11,4 ming tonna paxta tolasi (9,3 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 17,3 ming tonna paxta chigiti 8,0 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

99,8 %


Paxta tolasi, t.

90,7 %

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 180,7 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 11,7 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 7,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,9 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 585,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 121,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 540,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 94,8 % ni tashkil etgan. 2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 125,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 7,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 101,7 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 98,3 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 027,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 137,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 88,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 198,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 130,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 130,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 193,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar-aprel oylarida Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 115,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 204,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 166,0 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 63,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 99,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 127,9 % ga oshgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,7 % ini) tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,5 % ga kamayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	54 276,9	72 762,8	18 485,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	34 970,7	42 871,9	7 901,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	21 415,6	15 023,3	-6 392,3
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	5 642,7	6 752,5	-1 109,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 53,4 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 12,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2445 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 673 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,5 % i) Jizzax shahriga, 358 tasi (14,6 %) Sharof Rashidov tumaniga, 269 tasi (11,0 %) G'allaorol tumaniga, 235 tasi (9,6 %) Zomin tumaniga va 155 tasi (6,3 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

